

**SUYUNOV ABDUSOLI SAMATOVICH,
TEXNIKA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR.**

Abdusoli Samatovich Suyunov 1956 yilning 15 aprelida Samarqand viloyati Urgut tumanining Hozirgi Jar tepa QFY ga qarashli Rahmatobod mahallasi Saroy qishlog'ida, ishchi oilasida tug'ildi.

U o'qimishli Buxoroning "Mirarab" madrasasini bitirgan katta bobosi Mirzobek o'g'li Suyunboy qo'l ostida tarbiyalandi. 1962 yilda Saroy qishlog'idagi 76 - maktabning birinchi sinfiga o'qishga bordi, beshinchi sinfdan esa Jar tepa qo'rg'onida joylashgan "Moskva" nomli 20-son o'rta maktabda o'qishni davom ettirdi va uni a'lo baholarga bitirdi.



Uni o'qishga bo'lgan qiziqishi 1974 yilda Toshkent shahriga Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutiga yetakladi. 1979 yilda institutni bitirib oliy ma'lumot olgach turli lavozimlarda faoliyat yuritdi.

1979-1981 yillar Zarafshon GGE'da etakchi mutaxassis bo'lib ishladi. 1981-yilda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti rahbariyatining taklifi bilan "Muhandislik geodeziyasi" kafedrasiga laboratoriya mudiri lavozimiga ishga qabul qilindi. Shu davrdan boshlab Abdusoli Samatovich Suyunovning hayot faoliyati ilm-fan, ta'lim-tarbiya va kelajak-avlod taqdiri bilan bevosita bog'landi.

1985 yilning oxirida Oliy ta'lim vazirligining yo'llanmasi bilan Lvov politexnika institutiga (LoLPI) maqsadli aspiranturaga yuborildi. Abdusoli Samatovich Suyunov kirish imtihonlarini muvofaqqiyatli topshirgach aspiranturaga qabul qilindi. 1988 yil texnika fanlari doktori, professor, Ukrainada hizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi A.L.Ostrovskiy ilmiy rahbarligi ostida 05.24.01 - "Geodeziya" ixtisosligi bo'yicha "Zakonomernosti deystviya i metodi uchyota refraksiya pri geodezichiskix izmererniyax v usloviyax Sredney Azii" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini aspirantura muddati tugamasdan oldin muvofaqqiyatli himoya qildi.

U 1988 yildan boshlab 1993 yilgacha SamDAQIning "Muhandislik geodeziyasi" kafedrasida assistent, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. SHu bilan birgalikda Arxitektura fakulteti dekani muovini vazifasini bajardi.

1993 yil Ukraina Respublikasi oliy ta'lim vazirligi taklifi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining yo'llanmasi bilan Lvov

politehnika Milliy universitetining “Geodeziya” kafedrasiga doktoranturaga yuborildi. Nomzodlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan A.L.Ostorovskiy doktorlik dissertatsiyasiga ilmiy maslahatchi etib tasdiqlandi. Abdusoli Samatovich Suyunov 1994 yil Kiev davlat texnika arxitektura-qurilish universiteti qoshida faoliyat ixtisoslashgan ilmiy kengashda O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib 05.24.01-“Geodeziya” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muddatidan ilgari muvaffaqiyatli himoya qildi va texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovar bo‘ldi.

1996 yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Abdusoli Samatovich Suyunovning texnika fanlari doktori ilmiy darajasini nostrifikatsiya qildi.

1997 yil SamDAQI qoshida Respublika kadastr xizmati xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash kursini tashkil etdi va unga rahbarlik qildi.

Abdusoli Samatovich Suyunovga 2000 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan, professor ilmiy unvoni berildi.

Abdusoli Samatovich Suyunovni Oliy ta’lim tizimidagi o‘quv-uslubiy jarayonni takomillashtirish, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hamda “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunni amaliyotga joriy qilish borasida kamtarona xizmatlari bor. Jumladan, uning tashabbusi bilan “Muhandislik geodeziyasi” kafedrasini maxsus “Amaliy geodeziya” kafedrasiga aylantirildi va unga mudir etib tayinlandi. Shu davrdan boshlab kafedrada “Geodeziya, kartografiya va kadastr” sohalari bo‘yicha ko‘plab kadrlar tayyorlana boshlandi. Abdusoli Samatovich Suyunovning tashabbusi bilan kafedra qoshida 05.24.01-“Geodeziya” ixtisosligi bo‘yicha aspirantura faoliyati tashkil etildi. Bugungi kunga kelib, kafedrada 11.00.06- “Geodeziya. Kartografiya” ixtisosligi bo‘yicha katta xodim izlanuvchilar instituti faoliyat yuritmoqda. Abdusoli Samatovich Suyunov kafedra qoshida “Issiq va quruq iqlim sharoitida geodezik o‘lchash natijalariga refraksiya ta’sirini hisobga olib uni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq qilish” ilmiy markazi ya’ni “Refraksiya maktabi”ni tashkil etdi.

Abdusoli Samatovich Suyunov rahbarligida yuzlab bakalavrlar, o‘nlab magistrantlar va ilmiy xodimlar o‘zlarining diplom loyihalari, magistrlik va nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Ular bugun kunda “Geodeziya, kartografiya va kadastr” sohalarining istiqboli uchun oliy ta’lim muassasalari, tadqiqot va loyihalash institutlari va turli ishlab chiqarish korxonalarining yuqori lavozimlarida sharaf bilan mehnat qilmoqdalar.

2001 yilda Abdusoli Samatovich Suyunov institutning faxriy professori degan nomga musharraf bo‘ldi.

Abdusoli Samatovich Suyunovning “Geodeziya, kartografiya va kadastr” sohalarini turli jabhalarida, Respublika Oliy ta’lim muassasalari ichida muhim ahamiyat kasb etgan 10 dan ortiq darslik va o’quv qo’llanmalari nashr etildi va ulardan bugun ta’lim jarayonida keng ravishda foydalanilib kelinmoqda. Bundan tashqari, Abdusoli Samatovich Suyunov 25 ta o’quv-uslubiy majmua va ko’rsatmalar, 5 ta monografiya, 3 ta patent, 5 ta elektron darslik, 6 ta moodle, 200 dan ortiq maqola va tezislarning muallifi hisoblanadi.

2001-2004 yillarda O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining ekspertlar kengashi a’zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Abdusoli Samatovich Suyunov “Geodeziya, kartografiya va kadastr” sohalarining rivojiga qo’shgan xizmatlari uchun o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi, viloyat hokimligi faxriy yorliqlari, Oliy ta’lim vazirligining rahmatnoma va mukofotlari bilan taqdirlangan.

O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yillik ko’krak nishoni bilan taqdirlangan.

Abdusoli Suyunovning ilmiy rahbarligida A.A.Saloxiddinov Respublika aspirantlari o’rtasida o’tkazilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stepindiyasi tanlovida g’olib bo’lganligi bois, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkmasi xuzuridagi Fan va texnologiyalarning rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo’mitasi tamonidan rag’batlantirilgan.

Abdusoli Suyunov o’z hayotini yoshlar tarbiyasiga baxshida etgan inson, u bugun ham ta’lim jarayonida samarali ishlarni amalga oshirmoqda, yoshlarga yangi pedogogik texnologiyalar asosida zamon talablari darajasida saboq berib kemoqda.

Tinib-tinchimas olim xushmuomalalik, axloqiy poklik, odamiylik va mas’uliyatlilik kabi fazilatlarini o’zining shogirdlariga ham singdirishga harakat qiladi.

Ustoz oilali, u 4 nafar farzand va 12 nafar nabiralarning bobosi.

Shunday insonlar borki, ularning hayoti ibrat, o’zlari ham, so’zlari ham o’rnak bo’ladi. Ularning ziynatida olimlik va odamiylik fazilatlarini o’zaro uyg’unlashadi. Ta’limni ham, tarbiyani ham, muomala va muloqotni ham o’z joyiga qo’ya oladi. Hayot yo’li butun bir jamiyatimizning qalbu qiyofasini o’zida aks ettira oladi. Bu haqida gap ketganda, salkam qirq besh yildan buyon ta’lim va tarbiya tushunchalarini taqdiriga aylantirgan, ta’lim tizimida geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarini rivojlantirishning istiqbollari uchun boy tajribasi, bilim va mahorati bilan jo’shqin faoliyat yuritayapti.

Shogirdlar.

Millati o‘zbek. Ma’lumoti oliy.

1974-1979 yillarda Toshkent politexnika instituti (kunduzgi)ni muxandis - geofizik mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

1979-1981 yillar, Butun ittifoq mexnatni himoya qilish instituti Toshkent filiali akustika laboratoriya bosh muxandisi,

1981-1985 yillar - Samarqand davlat arxitektura – qurilish instituti «Muxandislik geodeziya» kafedra laboratoriya mudiri, assistenti,

1985-1988 yillar- Lvov politexnika instituti «Geodeziya» kafedra aspiranti,

1988-1992 yillar,- Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti «Muxandislik geodeziya» kafedra assistenti, katta o‘qituvchisi, dotsenti,

1993-1995 yillar - Lvov politexnika davlat universiteti «Geodeziya» kafedrasida doktoranti,

1995-2002 yillar - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Geodeziya va er kadastrida” kafedra mudiri,

1997-1999 yillar- Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti «SHaharsozlik, Geodeziya va er kadastrida» kafedrasida mudiri,

1999-2003 yillar- Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti «Geodeziya» kafedra mudiri,

2004-2018 yillar- Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasida professori lavozimida ishlagan.

2018 yildan hozirgacha Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti «Geodeziya va kartografiya» kafedrasida mudiri.